

## ABDULLA ORIPOV QALAMIGA MANSUB “SOHIBQIRON” SHE’RIY DRAMASIDA DAVLAT VA INSON MASALALARI

O’roqova Aziza Abdug’affor qizi

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TILLAR FAKULTETI O’ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI YO’NALISHI 1-BOSQICH TALABASI.

Hakimova Farida

Ilmiy rahbar: Tillar fakulteti o’zbek tili va adabiyoti kafedrası o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17976491>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Sohibqiron” dramasi davlat va inson masalasi badiiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asarda Amir Temur timsoli orqali davlat boshqaruvi, adolat, vijdon va insoniy mas’uliyat g’oyalari o’zaro uyg’unlikda talqin etilgan. Muallif dramaturgning tarixiy shaxsni sahnada qayta yaratish jarayonida davlat qudrati bilan insoniylik mohiyatini qanday muvozanatlashtirganini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada “Sohibqiron” dramasi orqali davlat va shaxs munosabatining milliy tafakkurdagi o’rni, uning zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy mazmun bilan bog’liqligi yoritiladi. Tadqiqot davomida asarning badiiy vositalari, dramatik konflikt va xarakter yaratish tamoyillari orqali inson va davlat o’rtasidagi murakkab falsafiy aloqalar ochib beriladi.

**Kalit so’zlar:** Amir Temur, Sohibqiron, davlat boshqaruvi, inson, tarixiy shaxs, harbiy taktika, voqea, tashbeh.

**Annotation:** This article analyzes the issue of the state and the individual in the drama “Sohibqiron” from a literary and philosophical perspective. Through the image of Amir Temur, the work reflects the ideas of state governance, justice, conscience, and human responsibility in a harmonious unity. The study examines how the playwright balances the concept of state power with humanistic values while recreating a historical figure on stage. Furthermore, the article explores the place of the relationship between the state and the individual in the context of national consciousness, as well as its connection to modern socio-spiritual meanings. The research reveals the complex philosophical ties between man and state through the artistic means, dramatic conflict, and character development used in the play.

**Keywords:** Amir Timur, Sahibqiran, state governance, human, historical figure, military tactics, event, simile.”

**Kirish:** Tarix insoniyatga buyuk shaxslar orqali o’z saboqlarini yetkazadi. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” she’riy dramasi Amir Temur hayotini va faoliyatini o’rganishga imkon beruvchi noyob manba hisoblanadi. Drama nafaqat tarixiy voqealarni sahnalar orqali jonlantiradi, balki Temurning strategik tafakkurini, harbiy taktika va shaxmat o’yiniga o’xshash murakkab qarorlarini ham ochib beradi. Shu tariqa, asar o’quvchini buyuk sarkarda shaxsining dono qarorlari, davlat boshqaruvi va adolatparvarligi bilan tanishtiradi, shuningdek, insoniy fazilatlar va vatanparvarlik g’oyalarini chuqur ifodalanadi.

**Sohibqiron** —1996-yilda O’zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tomonidan yozilgan, Sohibqiron Amir Temur hayotiga bag’ishlangan she’riy drama.[1] Amir Temur — jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslardan biri. Uning hayot yo’li bir tekis kechmagan. Taqdirning turfa zarbalariga munosib dosh berolganligi uchun ham shunday ulug’ maqomga erishgan. Abdulla Oripov qalamiga mansub „Sohibqiron“ she’riy dramasi Amir Temurning murakkab umr yo’li haqqoniy bo’yoqlarda ochib berilgan.

**“Sohibqiron” dramasi o‘z markaziga buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur shaxsini qo‘yadi. Asarda muallif nafaqat tarixiy voqealarni sahnaga olib chiqadi, balki davlat boshqaruvi va insoniylik o‘rtasidagi murakkab muvozanatni ochib beradi. Amir Temur timsolida davlatni kuch, adolat va mas’uliyat birligida tasavvur etgan tafakkur ko‘rinadi.**

[2]G‘arb tadqiqotchistadL.Kener Sohibqironning davlat siyosati haqida yozar ekan:”Amir Temur adolatni nihoyatda yaxshi ko‘rardi, shu sababli uning saltanatida birorta inson behuda ranjitilmagan, zulm ko‘rmagan. U ilm-fanni ham , ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maqsadi esa, butun saltanatida madaniyat va san’atning gullab-yashnashiga erishish edi. Uning oliyjanoblighi bisyor va bisyor hollarda namoyon

Bo‘lmishkim, alar haqida so‘ylab o‘tirishning o‘rni emasdir”, - deb ta’kidlagan edi [2.5.].

Dramada Sohibqironning “Saltanatning kuchi qilichda emas, adolatda” degan gapi bu asarning asosiy g‘oyaviy poydevoridir. Bu so‘zlar nafaqat hokimiyat tabiatini, balki insoniy qadriyatlarning davlat barqarorligidagi o‘rnini ham belgilab beradi. Temur adolatni qudratdan ustun qo‘ygan holda, inson qalbidagi vijdon va mas’uliyatni davlat poydevori sifatida ko‘rsatadi.

Muallif davlatni bevosita insoniy fazilatlar bilan bog‘laydi: hokimiyat — insonni sinovga soluvchi maydon, adolat esa uning ma’naviy mezonidir. Shu bois dramada Sohibqiron o‘z lashkarlariga, amaldorlariga, hatto o‘g‘liga murojaat etar ekan, ularning kuchidan avval vijdonini va adolat tuyg‘usini sinovdan o‘tkazadi.

Masalan, asarda Sohibqiron Shahrux bilan suhbatida shunday deydi:

“Saltanatni asrab qolmoq uchun qilich emas, zehn va toza yurak kerak” —Bu jumla inson omilining davlat taqdiridagi o‘rnini ifodalaydi. Demak, muallif uchun davlat — bu tizim emas, balki inson ruhiyatining davomi, insoniy fazilatlar aksi va ifodasidir.



[3]Abdulla Oripov har bir sahnani shunchalar mohirlik bilan chizganki,

Goho mehribon, goho qahri qattiq Amir Temur o'z saltanatidagi oddiy lavozim egasidan to eng yuqori lavozim sohibigacha samimiy suhbatdosh, hatto do'stona munosabatda bo'lganligini nozik bo'yoqlarda chizib bera olgan. Balki, shuning uchun ham shoir o'z dramasi boshlanishida Temurdek buyuk hukmdorni kazo-kazolar davrasida emas, balki oddiy bir satarosh suhbatida tasvirlaydi:

Temur: "Har qandayin bandaga ham kerakdir sirdosh

Senga ko'ngil ochsam bo'lar ..."

Satarosh: "Qulluq, Hazratim". [1.4.]

Dramada Amir Temur obrazi tilidan keltirilgan bu so'zlardan anglash mumkinki, u oddiy insonlar orasidan ham o'ziga do'st topa olgan.

Dramatik konflikt va xarakter yaratish tamoyillari:

Asarning dramatik mohiyati ham aynan shu g'oyaga asoslanadi: davlat manfaatlari bilan insoniy tuyg'ular to'qnashuvi. Sohibqiron bir tomondan — adolat va tartibni saqlovchi hukmdor, ikkinchi tomondan esa — shaxsiy iltiroblar, vijdon va or-nomus bilan yashovchi inson sifatida tasvirlanadi.

Dramadagi konflikt tashqi harakatda emas, ichki kechinmada kechadi. Temur qaror qabul qilayotgan sahnalarda muallif uning qalbida ikki kuch to'qnashayotganini ko'rsatadi: davlat manfaatlari va insoniy rahm-shafqat. Shu ziddiyat xarakterini jonlantiradi, asarni falsafiy qatlamga olib chiqadi.

Qarashlarimizni chuqurroq ifoda etishimiz uchun Amir Temur va Yassaviy o'rtasidagi suhbatni biz misol qilib olishimiz mumkin:

TEMUR:

Tinsiz jang-u jadal bilan o'tdi hayotim

Balki qancha umrlarga zomin bo'lganman.

Oxiratda etagimdan tutmasmi ular?

Yassaviy:

Allohimning xohishiga muvofiq kelsa

Ikki dunyo savob erur har qandayin ish.

Ayt-chi Temur, sen besabab qon to'kkanmisan?

Temur:

Adolat va dini Islom himoyasi deb

Yer yuzini fath ayladim, tartib o'rnatdim.

Yassaviy:

Ulug' ezgu niyatlarning ro'yobi uchun

Jang-u jadal, qon to'kishlik shartmikan, Amir?

Eng avvalo, har bir banda nafsini tiysin,

Bu dunyoning ne'matlari aldamchi, ro'yo,

Oxiratni o'ylaganlar komil bo'lgaylar.

Ushbu suhbatda Temur va Yassaviy o'rtasida adolat, jihat va insoniylik haqida falsafiy munozara kechadi.

Temur o'z janglarini adolat va Islom himoyasi deb biladi, Yassaviy esa haqiqiy adolat — nafsni tiyish, dunyo lazzatlaridan voz kechish va oxiratni o'ylashda, deya undaydi.

Asarda kuch bilan emas, poklik va ruhiy komillik bilan adolatga erishish g'oyasi ilgari suriladi.

Milliy tafakkur va zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy bog'liqlik

“Sohibqiron” dramasi orqali muallif o'zbek milliy tafakkurida davlat va inson o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini tiklaydi. Amir Temur siymosi xalqimiz tafakkurida adolatparvar, vijdonli va mas'uliyatli rahbar timsoliga aylangan. Bugungi davr kontekstida bu obraz zamonaviy boshqaruv falsafasining ma'naviy ildizlarini eslatadi.

Dramaning g'oyasi shuni anglatadiki, davlatning qudrati moddiy vositalarda emas, balki insoniy qadriyatlar, ma'naviyat va adolatga sodiqlikda mujassamdir. Shu ma'noda, asar zamonaviy ijtimoiy hayot uchun ham **muhim xulosa beradi: insonni qadrlamagan davlat mustahkam bo'la olmaydi.**

#### **Xulosa**

“Sohibqiron” dramasi tarixiy shaxs obrazini yaratish orqali davlat va inson masalasiga falsafiy yondashuv beradi. Asarda hokimiyat va vijdon, qudrat va mas'uliyat, davlat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlar dramatik vositalar orqali ochib berilgan. Amir Temur siymosida muallif adolat, tafakkur va insoniylikni davlat poydevori sifatida talqin etadi.

#### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. [https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/abdulla\\_oripov](https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/abdulla_oripov)
2. Oripov A. Sohibqiron. Drama. –Toshkent. Yangi nashr. 2019.
3. Keren L. Amir Temur saltanati. –Toshkent. Fan nashriyoti. 2018.
4. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti. –Toshkent. Yangi asr avlodi. 2005.
5. [https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/abdulla\\_oripov](https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/abdulla_oripov)
6. Oripov, A. Sohibqiron. Drama. – Tashkent: Yangi Nashr, 2019.
7. Keren, L. The Empire of Amir Temur. – Tashkent: Fan Publishing House, 2018.
8. Mirzaev, S. 20<sup>th</sup> Century Uzbek Literature. – Tashkent: Yangi Asr Avlodi, 2005.